

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:45 (67210)
2018-yil 5-noyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



VODIY GULGA BURKANGAN MAKON, PESHVOZ CHIQDI MINGLAB KITOBXON!

4-5 betlar



IBRATLI MAKTAB MO'JIZALARI

— Chunki maktab 2011-yildan buyon reyting ko'rsatkichlariga ko'ra, respublikamizda 1-o'ringni egallab kelmoqda. Bilim dargohimizda 2312 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi, — deydi faxr bilan maktab direktori Gulnora Jumaniyozova. — Ularga 193 nafar muallimlar turli fanlardan saboq beradilar. O'qituvchilarimizdan 51 nafari

Navoiy shahridagi 11-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabini nafaqat Navoiy viloyati, balki respublikamizda ham yaxshi bilishadi, qadrlashadi va hamisha uni namuna qilib ko'rsatishadi.

«Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlar. Ular orasida davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan ustozlar ham bor. Asosan, matematika va ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan va fanlar chuqur o'qitiladigan sinflar soni 42 tani tashkil qiladi.

Maktabda har jihatdan o'rganishga arziyadigan ibratli misollar ko'p. Masalan, «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida Ruslan Abdiyev — geografiya (2012-yil), Samar Jumayev — fizika (2013-yil), Sardor Norbo'tayev — tarix (2015-yil), Fariz Hakimov — fizika (2015-yil), Shohid Kamolov — tarix fanlaridan (2017-yil) 1-o'ringa sazovor bo'lganlar.

Respublika xalq ta'limi vazirligi va Buyuk Britaniya elchixonasi hamkorligida tashkil qilingan «Yilning eng yaxshi ingliz tili o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida g'olib bo'lgan maktab o'qituvchilari — Vazira Azimova, Ahad Ahmedov, Dilbar Jumayeva Buyuk Britaniyaning nufuzli oliy o'quv yurtlarida malaka oshirib qaytdilar.

«Nihol» davlat mukofoti sovrindorlari, xonanda Go'zal Jumaniyozova, Farrux Bahranov va 2013-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan Nigora To'ymurodovalar ushbu maktabda ta'lim olganliklari bilan faxrlanadilar.

Maktab hayotida bunday ibratli misollarni

ko'plab keltirish mumkin.

Yaqinda ushbu ta'lim maskanida O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri o'rinbosari, Respublikada xizmat ko'rsatgan jurnalist Ashurali Jo'rayev bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Qizg'in savol-javoblarga boy bo'lgan ushbu uchrashuvda yozuvchi Muhammad Alining «Sarbadorlar», «Ulug' saltanat» tarixiy romanlari haqida kitobxonlar o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Ashurali Jo'rayev bugungi yoshlar tarbiyasi va ular oldida turgan vazifalar hamda bolalar nashrlari haqida atroflicha so'zlab berdi.

Uchrashuvda ishtirok etgan Navoiy shahar xalq ta'limi bo'lim mudiri Ra'no Hayitova so'zga chiqib, shahar maktablarida amalga oshirilayotgan ibratli yutuqlar haqida gapirib, uchrashuv qatnashchilari va mehmonlarga minnatdorchilik bildirdi.

Ana shunday qizg'in tadbir shahardagi Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyotiga ixtisoslashtirilgan 19-davlat umumta'lim maktabida ham bo'lib o'tdi. Uchrashuvlar sinflarda dars shaklida o'tkazildi. Masalan, 1-sinf o'quvchilari Vatan mavzusidagi she'rlardan yod aytib bergan bo'lsa, 4-sinf o'quvchilari tarixiy qahramonlar madhi e'tilgan asarlardan parchalar o'qidilar. 10-sinf o'quvchilari mulqot tarzida mustaqil O'zbekiston va erishilayotgan ulkan yutuqlar haqida so'zladilar. Ayniqsa, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining bolalarga atalgan she'rlari ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Nigora JO'RAYEVA

A'LOCHILARGA PROFESSOR STIPENDIYASI BERILADI

Sarlavhani o'qib, anglaganingizday, poytaxtimizdagi 274-umumta'lim maktabida ana shunday xayrli tashabbus yo'lga qo'yilibdi. Ushbu ezgu ishga akademik va professor sifatida ilm sohasiga xizmat qilayotgan maktabning sobiq o'quvchilari hissa qo'shibdi. Fan olimpiadasi, «Bilimlar bellashuvi» hamda turli ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etayotgan iqtidor egalariga bu e'tibor qanot bag'ishlashi, shubhasiz.



— Bunday rag'bat a'lochi o'quvchilarni yanada faollikka, ijodkorlikka undaydi, — deydi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnora Ibragimova. — Qolaversa, boshqa tengdoshlari ham ulardan o'rnak olishadi. Shu tariqa bu tashabbusimiz yil bo'yi davom etadi.

Mahmuda ZOIRXON qizi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Jamila Saidvaliyevaning darslarini o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi. Hatto 11-sinf o'quvchisi Sabina G'ulomjonova eng sevimli fanini har kungi dars jadvalidan o'rin olishini istaydi. O'quvchilar mehri va qiziqishidan quvongan muallima esa turli tadbirlarni tashkillashtirishdan sira charchamaydi.

TA'LIM MASKANI SAHNASIDA «O'TKAN KUNLAR»

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 235-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan navbatdagi adabiyot bayramiga bizni ham taklif qilgan o'quvchilar ustozlaridan olgan bilimlarini barcha tengdoshlariga namoyish etishni istabdi.

Chindan ham bu yosh adabiyotshunoslarning yuragida xo'p zavqi-yu shavqi borligini faollar zaliga kirib borishimiz bilanoq his etdik. Bir yonda doiraning sho'x «baka-bum»i avjida. Yana bir yonda esa bilimdon boshlovchilar tadbir boshlanishini intiq bo'lib kutmoqda. Ayniqsa, «O'tkan kunlar» asari asosida qo'yilajak sahna ko'rinishiga tayyorlanayotgan o'g'il-qizlarni ko'rib, o'zimni xuddi katta teatr dargohiga kelib qolgandek his etdim, go'yo.



Shu payt g'azalxon qiz Gulmira sahnaga chiqib, Navoiyning «Kecha kelgumdir debon...» deya boshlanuvchi g'azalini maromiga yetkazib ijro etdi. Maktabning rus sinf o'quvchilari ham she'r-u ruboiylarni ta'sirchan aytishda undan sira qolishmadi. O'quvchilarning bir-biridan qiziqarli badiiy chiqishlarini kuzata turib, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari — Gulbahor Rahimova, Saodat Zoidova, Mamlakat Otaqulovlar o'z kasbining chinakam fidoyilari ekaniga amin bo'ldim.

Maktab rahbari Mo'mina opa Sulaymonova esa o'quvchilarni «Tong yulduzi» gazetasi bilan do'stlashib olganlaridan quvonib, «Bu nashrni men ham sizning yoshingizda o'qiganman», deya ta'kidladi.

Navbat maktabning raqqosa qizlariga berilganida, zal o'yin-kulgiga to'ldi. Shundan so'ng, ishtirokchilar «Kuntug'mish» dostonidan parcha namoyish etishdi. Bu orqali tomoshabinlar asar qahramonlarining nomlari-yu o'g'itlarini yoddan chiqarib qolgan bo'lishdi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu tadbir barcha yig'ilganlarga olam-olam zavq ulashdi.

Sayyora QODIROVA

SHE'R YOZISH JON-U DILIM

Men «Tong yulduzi»ning har bir sonini muntazam o'qib boraman. Ayniqsa, gazetaning adabiyot va sport sahifalari judayam yoqadi. O'zim ham darsdan so'ng sportning futbol turi bilan shug'ullanaman. Yaqinda shahar miqyosida bo'lgan musobaqada jamoamiz bilan 2-o'rinni egalladik.

Adabiyotga bo'lgan qiziqishim tufayli ba'zida she'rlar ham yozib turaman. Ulardan birini sizlarga taqdim etmoqchiman.

USTOZ

Ustozimsiz mehrini bergan,
Onam kabi erkalab suygan.
Siz otamsiz, onamsiz, ustoz,
Sizni doim etamiz e'zoz.

Shohruh XO'JAMOV,

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi davlat ixtisoslashirilgan maktab-internatining 6-sinf o'quvchisi

ORZULARIM BIR JAHON

Qadrdon maktabim va
ustozlarimga mehrim bo'lakcha.



Shu kunga qadar ko'plab fan olimpidalari va tadbirlarda faol ishtirok etib, maktabimiz dovru'g'ini ko'klarga ko'tarmoqdaman. Orzularim va rejalarim bir jahon. Kelgusi yilda jonajon maktabimni tugatib, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o'qishga kirmoqchiman. Shu kunlarda o'qishdan tashqari, qo'shimcha darslarga qatnab, oliy o'quv yurtiga kirish uchun qattiq tayyorgarlik ko'ryapman. Shuningdek, bo'sh vaqtimda kitob o'qish va she'r yozishni kanda qilmayman. Yana «Tong yulduzi» gazetasi mening eng sevimli hamrohim. Ayniqsa, she'riyat sahifasida chop etilayotgan tengdoshlarimning ijod namunalari o'qib, rosa zavqlanaman. O'zim ham tahririyatga ba'zi qoralamalarimdan namunalar yuboryapman. Gazetada she'rlarim bosilsa, boshim ko'kka yetardi.

EHTIROM

Voyaga yetdik bugun,
Sening quchog'ingdamiz.
Qancha sho'xliklar qildik,
Bilmay turib goho biz.

Shu tabarruk maskanda,
Vatan so'zin tanidik.
Ota-ona biz uchun,
Qadrdonligin bildik.

Ustozlarim tinimsiz,
Bilim berishdi bizga.
Rahmat, deyman hamisha,
Ehtirom ila sizga.

Shahnoza XUDOYBERGANOVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi
33-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MAKTABDAGI SIRDOSHIMIZ

Yurtimizdagi barcha umumta'lim maktablarida psixolog mutaxassislar faoliyat yuritadi. Ammo bu kasb egalari bor-yo'qligini ba'zan payqamay ham qolamiz. Faqat maktabni bitirish arafasida ularning kasb tanlash haqidagi maslahatlarini olganimiz, esimda.

Kollejdagi psixolog ustozimiz esa «Oila psixologiyasi» fanidan saboq berar edi. Garchi, ta'lim muassasamizning ikkinchi qavatida ularning xonasi bo'lsa-da, biz u yerga deyarli kirmasdik. Chunki bu xonaga yo'l olganlarni ko'rgan tengdoshlarim darrov, «Bir nimasi bor...», deya noto'g'ri fikrga borishar edi.

Ruhshunosga shifokorday qarash holatlari ko'pchilik o'quvchilar orasida kuzatiladi. Ammo, bir zum o'ylab ko'rsak, psixolog ruhiyatni o'rganuvchi, o'quvchining o'y-xayollari bilan o'rtoqlashuvchi, uning muammolarini hal qilishda beminnat yordamchidir. Buni hatto ba'zi ota-onalar ham tushunmaydi. Shu bois, tengdoshlarimdagi noto'g'ri fikrlar oilaviy muhitda shakllangan bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

Quvonarlisi, joriy o'quv yilidan maktablarda psixologlarga ajratilgan ish o'rinlari kengaytirildi. Zero, o'smirlar bilan ishlovchi ruhshunoslar ularni turli yot g'oyalardan asrashlari, o'smirlar paytidagi muammolarni yengib o'tishiga ko'maklashishlari zarur. Qolaversa, sirdoshimiz-u do'stimizga aylanishi kerak bo'lgan ruhshunoslardan biz o'quvchilar doimo tashabbuskorlikni kutamiz.

Mardona ZOKIROVA,

Respublika Yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi

The role and the place of each nation in the process of world progress is defined with the amount of books read by this nation.
E. LABULE

ARTICLES ARE CONFUSING!!!

Articles are used to help us separate or understand new information with old information.

a/an

When to use «an» or «a» depends on how the word is pronounced and not on how to it is written.

The «U» in university is pronounced with a long «u» sound which sounds like «yew» and is written as «j» in the phonetic alphabet. So, although the letter is vowel, it is not pronounced like one in «university» because it does not have a vowel sound. Therefore, it is said a university.

The «U» in umbrella is pronounced as a vowel sound and so we use «an» an umbrella.

This rule also applies to the use of consonants.

The word hour has a soft «h» which is weakly pronounced and therefore we say an hour.

If the word has a hard «h», like house, we use «a» (a house)

The first time mention or refer to a noun.

e.g. I bought a new book. (first mention)

To name a member of a group.

Jobs: I am a doctor.

Nationalities: He is a Uzbek.

Religions: He is a Muslim/Christian/Buddhist.

When speaker means «one».


e.g. I had a (=one) ticket.

Expressions that quantify.

A little (bit) of

A lot of

A ton of.



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

WHICH SENTENCE IS CORRECT?

- A) Have you ever been to Paris?
B) Did you ever go to Paris?
A) I always brush my teeth in the evening.
B) I brush my teeth always in the evening.
A) Take an umbrella it's raining.
B) Take a umbrella it's raining.
A) What is the difference between vowel and consonant?
B) What's difference between vowel and consonant?




EASY WAY TO LEARN ENGLISH

Writing messages to
your friend in English.
Reading English book
for your level.

Use vocabulary for new
words.

Stick new words on the
notebook.

Listen English music
with lyrics.



Ma'mura G'ULOMOVA

FULL FILL THE PROVERBS

1	A rolling stone...	a	better than one.
2	Rome was not...	b	do it yourself.
3	All is well that...	c	it is no use.
4	Ask no questions and...	d	is above wealth.
5	Two heads are...	e	gather no moss.
6	If you want a thing done, ...	f	ends well.
7	Crying over split milk...	j	in a day.
8	Good health	k	you will be told no.

1) ... 2) ... 3) ... 4) ... 5) a 6) ... 7) ... 8) ...

VODIY GULGA BURKANGAN MAKON,

Aziz o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, har yili gazetamiz orqali e'lon qilinadigan turli ko'rik-tanlov g'oliblarini «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga taklif qilar edik. Ammo joriy yil g'oliblarni o'zlari ta'lim olayotgan bilim maskanlarida taqdirlash va bu kabi tadbirlarga qo'shni maktab o'quvchilarini ham taklif qilishni maqsad qildik. Ushbu ezgu niyat ila oltin vodiy tomon yo'lga otlandik. Namangan, Farg'ona va Andijon viloyati o'quvchilari va ularning ustozlari bilan bo'lgan dilkash suhbatlar, qiziqarli uchrashuvlar, samimiy savol-javoblar unutilmas voqea va taassurotlarga boy bo'ldi. Ayniqsa, ustoz-shogirdlarning ko'rsatilgan e'tibor va rag'batdan behad mamnun bo'lgani, hatto ko'zlarida sevinch yoshlari halqalagani bu sa'y-harakatlarimiz besamar ketmagani ko'rsatdi.

KUTUBXONADAGI SUHBAT

Safarimizni Farg'ona viloyatining Uchko'rik tumanidagi 20-umumta'lim maktabidan boshladik. Ta'lim maskani kutubxonasiga kirganimizda, u yerdagi kitobxon o'quvchilarni ko'rib, ko'zimiz quvna ketdi. Xonaga diqqat bilan razm solarkanmiz, kitob mutolaa qilayotgan bir bolakay e'tiborimizni o'ziga tortdi. Asta uning oldiga borib, qanday kitob o'qiyotgani bilan qiziqdik:

- Isming nima? O'zingni tanishtir.
- Diyorbek Turg'unov. 5-«V» sinfda o'qiyman.
- Qanday kitob o'qiyapsan?
- «Qiziqarli geografiya».
- Darslar tugadimi?
- Yo'q, endi boshlanadi, darsga ozgina ertaroq kelib qolibman.
- Dars boshlanguncha mazza qilib o'rtoqlaring bilan ko'chada o'ynasang bo'lmaydimi?
- Bo'ladi, o'ynayman, kitob ham o'qiyman. Hammasini vaqti-vaqti bilan bajaraman.
- Rahmat, – dedik-da, Diyorbekka xalaqit qilmaslik uchun o'ziga sezdirmaygina suratga tushirdik.

Shuningdek, 2017–2018-o'quv yilida tarix fani bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 1-o'rinni egallagan Shohruhmirzo Mahamadov bilan ham yaqindan tanishdik. U qo'lga kiritgan yutuqlari uchun ustoz Ma'muraxon Nuraliyevadan behad minnatdor ekanligini bildirdi.

Kutubxonada maktabning faxri sanaladigan o'quvchilardan yana biri Sardor Yo'ldoshev bilan ham suhbatlashdik. Ustoz Namunaxon Meliboyevaning talabchanligi bois, u bir necha yildan buyon tarix fani bo'yicha bo'lib o'tgan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman, viloyat va respublika bosqichlarida faxrli o'rinlarni ko'lga kiritib kelar ekan.

– Tanlovlarda ishtirok etishdan asosiy maqsadim, yuqori o'rinlarni egallashgina emas, balki olgan bilimlarni sinovdan o'tkazish, bilmaganlarimni o'rganish, – deydi kitobxon tengdoshingiz Sardor.

Nodirabegim RO'ZIBOYEVA, Uchko'rik tumanidagi 10-«G» sinf o'quvchisi:

– Har yili sinfdoshlarimiz bilan «Tong yulduzi»ga obuna bo'lamiz. Gazetada e'lon qilingan «Men yosh vatanparvar» ko'rik-tanlovida «Mustahkam ahd» nomli hikoyam bilan qatnashib, g'olib bo'lganman. Bellashuvning taqdirlash marosimida ishtirok etish uchun ustozim Mahfuza Arapova bilan poytaxtga bordim. Bugun yana bir maktabdoshim Muslima Shermuhammedova «Boylikni bolalikdan asrang!» tanlovi g'olibi bo'lganligidan juda quvondim.

Maktabimizda tahririyat xodimlari bilan qiziqarli uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu esa meni yanada ko'proq o'qishga, yuqori yutuqlar sari intilishga undadi.

Uchko'rik tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi Muslima Shermuhammedova «Boylikni bolalikdan asrang!» tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan. U juda ko'p kitob mutolaa qiladi. Qolaversa, «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini muntazam kuzatib boradi. Yosh iqtidor egasi tanlovda ishtirok etish uchun maqola yozib, ustoz Mashhura Matkarimovaga ko'rsatadi. Muallima ijodiy ishni o'qib chiqqach, tahririyatga yuborish kerakligini maslahat beradi.

– Taqdirlash uchun poytaxtdan kelgan tahririyat xodimlariga o'z minnatdorligimni bildiraman, – deydi Muslima. – Eng quvonarlisi,

mehmonlar aynan men sotib olmoqchi bo'lgan kitoblarni sovg'a qilishdi. Endi bu kitoblarni dugonalarim bilan birga o'qiyim.

O'QUVCHILARGA AVTOBUS AJRATILGAN

Muhabbatxon Mamadaliyeva rahbarlik qilayotgan 21-umumta'lim maktabi, Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi Baxmal qishlog'ida joylashgan. Maktab o'quvchilari uchun ikki navbatda avtobus qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Bilim maskanidagi 26 ta fan va 6 ta sport to'garaklarida o'quvchilar faol qatnashadi. Shuningdek, maktab futbol, basketbol va voleybol maydonchasi hamda yopiq sport zaliga ega. Quvonarlisi, ta'lim muassasasining ilgama chanoq o'quvchilari «Bilimlar bellashuvi» va fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda.

2017–2018-o'quv yilida 9-sinf o'quvchisi Gulfira Orifjonova kimyo fani bo'yicha o'tkazilgan fan olimpiadasining tuman bosqichida 2-o'rinni egallab, viloyatda faol qatnashdi.

10-sinf o'quvchisi Guljahon Abduqunduzova ona tili, 9-sinf o'quvchisi Gulnigora Mansurjonova tarix fanidan tuman bosqichida 2-o'rinni egalladi. 10-sinf o'quvchisi Mohidil Hafizova rus tili, Shahnoza Ne'matova esa tarix fanidan 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

2018-yil yanvar oyida shaxmat bo'yicha 14 yoshlilar o'rtasida o'tkazilgan Respublika birinchiligi viloyat bosqichida 6-sinf o'quvchisi Gulsanam Abdurasulova muvaffaqiyatli ishtirok etib, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Ayni paytda maktab qoshida tashkil etilgan shaxmat to'garagiga 16 nafar o'quvchi qatnashadi. Shohruz Sobirov, Nozima Abdurasulova, Barhayot Abduljalilov, Gulmira Akramova kabi o'quvchilar turli sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritmoqda.

Maktabda barcha qulayliklarga ega bo'lgan kutubxona mavjud. Kutubxona fondi homiylar va ota-onalar yordami bilan boyitib borilmoqda.



PESHVOZ CHIQDI MINGLAB KITOBXON!

«SOVG'A QILINGAN KITOBLARNI SINFDOSHLARIM BILAN BIRGA O'QIYMIZ»

**Maftuna NOSIROVA, Beshariq tumanidagi
21-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:**

– «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Boyligni bolalikdan asrang!» tanlovi g'olibi bo'lganimdan behad quvondim. Ayniqsa, gazeta Bosh muharriri qo'lidan eng sara badiiy kitoblarni qabul qilib olganligimdan faxrlandim. Bu kitoblarni endi sinfdoshlarim bilan birgalikda o'qiyman.

Ushbu nashrda she'r va maqolalarim muntazam chop etiladi. Ijod namunalarimni kitobga jamlab, chop etish maqsadida ustozim Ra'no opa Usmonova bilan tinmay izlanayman.

QUVONCHLI KUN BO'LDI

**Shahloxon Yo'ldosheva, Rishton tumanidagi
19-umumta'lim maktabi o'quvchisi, «Kim ko'p
kitob o'qiydi?» tanlovi g'olibi:**

– Bugun men uchun juda quvonchli kun bo'ldi. Tuman Yoshlar ittifoqi tomonidan 15–19 yoshlar o'rtasida o'tkazilgan «Yosh kitobxon» tanlovida 1-o'rinni egallaganim uchun planshet bilan taqdirlashdi. Maktabimiz rahbari Azamat Hakimov hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Obidjon aka Xudoyqulov «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatidan mehmonlar kelishayotganini, men va 3-sinf o'quvchisi Madina Rahimjonova bilan alohida uchrashmoqchi ekanliklarini aytishdi. Darsdan so'ng maktab foyesida mehmonlarni kutib oldik. Ko'p kitob o'qiganligim va munosib taqdirlanganligim uchun barcha tengdoshlarim samimiy qutlashdi. Bu e'tirof maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi sardori sifatida meni yanada faol bo'lishga undaydi. Maktabimizning barcha o'quvchilariga tanlovlarda o'z iqtidoringiz bilan qatnashing va albatta, g'olib bo'lasiz, deya tilak bildirdim.

Madina RAHIMJONOVA, tanlov g'olibi:

– Bugun juda hayajondaman. Onajonim kutubxonachi bo'lganligi uchun ko'p kitob o'qiyman. Kitob tanlashda onam va ustozim Sadoqat Jalolova hamisha menga yaqin ko'makchi. Nasib bo'lsa, hali ko'plab ko'rik-tanlovlarda g'olib bo'lib, Nodira-yu Uvaysiy, Zulfiyaxonimga munosib avlod bo'laman.

Maktab rahbari Azamat Hakimov tashrifimizdan nihoyatda xursand bo'lib, taqdirlash marosimida bolajonlar she'rlar, tez aytishlar aytib berish uchun navbat kutishayotganini bildirdi. Biz bolajonlarning iste'dodini ko'rib, safar charchog'imiz ham bilinmay ketdi.

Azamat akaning aytishiga qaraganda, Obidjon aka ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maktabning yuragi sanalar ekan. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Mansurjon Mamatqulov yakkakurash, futbol musobaqalarida maktab jamoasi nihoyatda faol ekanligini aytib, sportsevar o'quvchilarini rosa maqtadi. Ustoz so'zi yakunida «Bizning o'quvchilar sportda juda ko'p yutuqlarga erishadi. Ular haqida gazetangizda maqolalar chop etishingizni istaymiz», deya tilak bildirdi.

«MEHRJON» BAYRAMI BO'LDI

Andijon viloyati bo'ylab safarimiz davomida Oltinko'l tumanidagi 16-umumta'lim maktabida «Ona tilimiz – faxrimiz» viloyat seminari hamda «Mehrjon» bayrami juda qiziqarli va taassurotlarga boy tarzda tashkil etilganligining guvohi bo'ldik. «Yosh adabiyotchi» hamda «Yosh tilshunolar» to'garagi a'zolari, shuningdek, 4-«A» sinf o'quvchilari bu tadbirlarda faol ishtirok etishdi. 10-«B» sinf o'quvchisi Mohidil Yo'ldosheva o'zi yozgan she'rlardan o'qib berganda, tengdoshlari uni gulduros qarsaklar bilan olqishladi.

«QUYOSH VA KITOB»

Yurtimizdagi tinchlik va totuvlik tufayli ertangi kunga ishonch bilan odimlayotgan, a'lo baholarga o'qib, maqsadlari sari dadiil intilayotgan o'quvchilar juda ko'p. Safarimiz chog'ida Andijon shahrida joylashgan maktablarda bo'lganimizda, bunga yana bir bor ishonch hosil qildik.

– Men 8-«A» sinfda o'qiyman, – deya o'zini tanishtirdi Muhammad Yusuf nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internati o'quvchisi Odina Egamberdiyeva.

Uning she'r va maqolalari viloyat va respublika nashrlarida muntazam chop etilar ekan. U bizga «Quyosh va kitob» she'ri o'qib berdi.

«CHUQUR BILIM OLISHNI ISTAYMIZ»

– Sinf rahbarimiz Sevara Shamsitdinova bizga ko'p kitob o'qishimiz kerakligini aytadilar, – deydi Andijon shahrida joylashgan 13-xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 2-«B» sinf o'quvchisi Saidakbar Mahmudov. – Ustozimiz ertak kitoblarning eng qiziqarli joylaridan parchalar o'qib, keyingi gal o'sha ertakni to'liq mutolaa qilishimizni tayinlaydilar. Sinf doshlarim – Baxtiyor Turg'unboyev, Ahrorbek Olimov, Shuhratbek Yusupov bilan ko'p kitob o'qib, tanlovlarda g'olib bo'lishni xohlayman.

30 nafar o'quvchi tahsil oladigan bu sinfda xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilar Dilorom Qambarova, Kamilla Matyoqubova kabi ustozlaridan ingliz tili, Havoxon Mirzayeva hamda Muhabbat Qosimova kabi muallimalardan esa rus tilini chuqur o'rganishadi.

MEN SHUNDAY KAMOL TOPAYKI...

**Mohizoda TUROPOVA, Andijon viloyati,
Muhammad Yusuf nomidagi ixtisoslashtirilgan
davlat maktab-internatining 7-«A» sinf
o'quvchisi:**

– Vatani – sen mening tug'ilib o'sgan makonim, orastalikka yetaklagan gulbog'im. Sen bobolarim kamol topgan aziz go'shamsan. Quyosh nuri olamni yoritgani kabi ko'ngil olamimni yoritguvchi nurim, tog'lardan-da baland g'ururimsan. Quchoq'i gullarga to'lgan Andijonimsan. Tilagim, kelajakda Vatanimning ertasi uchun kerakli inson bo'lay...

Moziyga qaytib, Vatanim tarixi kitobini xayolan varaqlayman. O'sha olis o'tmishda mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning erki va ozodligi uchun kurashgan, ma'naviyatli, iymonli o'zbek xalqi tarixini o'qiyman, yurtimning yorqin, porloq istiqbolini ko'raman. Bu diyor o'z beshigida Sohibqironni, so'z mulkingning sultonini ulg'aytirdi. Uning buyuk farzandlari bor. Bugun ham uning haroratli bag'rida buyuk ajdodlarimizga munosib avlod ulg'aymoqda.

Vatani – sening tinchliging, mening nurli kelajagimni ta'minlaydi. Sen tunda yo'llarimni yoritguvchi to'linoyimsan. Toki hayot ekanman, yuragimda senga bo'lgan mehrim alangasi aslo so'nmaydi. Mehr bulog'ingdan qonib-qonib ichaveraman.

**Namanganlik o'quvchilar hamda viloyatning
ilg'or umumta'lim maktablariga bag'ishlangan
maqolalarni navbatdagi sonlarimizda
berib boramiz.**



Qo'shsahifani Feruza SOYIBJON qizi va Nodira NAZAROVA tayyorladi

VATAN SOG'INCHI

Juda olis tomonda,
Hindistonday makonda.
Podshoh bo'lgan bir mag'rur,
Udir bobomiz Bobur.

Sog'ingandir yurtining,
Olma, o'rik bog'ini.
Sog'ingandir Vatanning,
Muqaddas tuprog'ini.

Vatanini qo'msabon,
Yashagan u bir umr.
Sog'inchidan sarg'ayib,
She'r yozdi Mirzo Bobur.

Tinchlik uchun kurashdi,
Vatan uchun qir oshdi.
Mustaqillik orzusi,
Bu kun amalga oshdi.

Mekan MERETOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l tumanidagi 58-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi



OYMOMO

Doim tunda chiqasan,
Ma'yus qarab turasan.
Oymomojon, oymomo,
Sen bizlarga jon momo.

Yo'llarimiz yoritib,
Bizga ko'mak berasan.
Tunda to'sha oq gilam,
Biz bo'laylik shod-xurram.

Oymomojon, oymomo,
Sen bizlarga jon momo.

Zahro YOQUBJONOVA,
Toshkent shahar, Olmazor tuma-
nidagi 119-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi



MENING BOG'-U
BO'STONIM

Tug'ilib o'sgan tuproq,
Azizsan menga, Vatani.
Doim quvnoq yuraman,
Gulzorlaringda har dam.

Sen bog'-u bo'stonimsan,
Nurli chamanistonim!
Kindik qonim to'kilgan,
Yurtim — O'zbekistonim!

Sanjar SAYDIRASULOV,
Samarqand viloyati, Qo'shrabot
tumanidagi 16-umumta'lim makta-
bining 4-«A» sinf o'quvchisi

IKKI XO'ROZ

Tong saharda uyg'onib,
Qichqirdi ikki xo'roz.
Bir-biridan o'zishga,
Ikkov bo'ldi jo'rovov.

Biri baland qichqirsa,
Ikkinchisi oshadi.
Raqibini yengmoqqa,
Ikkisi ham shoshadi.

Bir payt ikkalasi ham,
Qichqirishdan tolishdi.
Ovozlar chiqmayin,
Uyalib ham qolishdi.

Maqtanma g'oz, deydilar,
Maqtanchoqlik ko'p yomon.
Kim kibrga berilsa,
Erur o'ziga ziyon.

Boburjon IBROHIMJONOV,
Toshkent viloyati, Chinoz tuma-
nidagi 40-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchisi

Kuz kunlarining birida o'tinchi Qurbon amaki Baxmalning Oyqor tog' etaklaridagi qurigan archa shoxlarini uloviga o'ngarib, tog'dagi yolg'izo-yoq yo'ldan qaytarkan, adashib qolgan ayiq bolasiga duch keldi. Oyoq tagidan chiqqan tayyor o'ljasini darhol xurjuniga joyladi. U yo'l-yo'lakay xayol surib, hovlisiga qanday yetib kelganini ham payqamadi. Keyin o'tinni tushirar-tushirmas, nabiralarni xursand qilish uchun ayiqchaga joy hozirlashga kirishib ketdi. Kichkintoylar esa ko'zlari munchoqdek mo'tirab turgan ayiq bolasi yonidan aslo jilmas, xursandchiliklarining chek-chegarasi yo'q edi.

Hademay, bostirmaning bir chetida chog'roqqina uycha tayyor bo'ldi. To'yimli ona sutidan bebahra bo'lgan jaji jonivor sergo'sht suyak, meva va turli-tuman shirinliklar bilan parvarishlana boshlandi. Yegulik mo'l, uni Shertoy deb chaqira boshlashdi.

Kunlar, haftalar o'tib, bu yerdagi hayot Shertoyga yoqib qoldi chog'i, jussasi kichik bo'lsa ham vazni orta bordi. Oyoq panjalaridagi o'tkir tirnoqlari ko'zga tashlanib ham qoldi. Bora-bora ayiqcha qo'shni hovlidagi bolalarga o'rganib, ular bilan ham o'ynay boshladi.

Qurbon amakining hovli bog'i tog' yonbag'irlarigacha cho'zilib ketgan bo'lib, tevarak-atrof ajib manzara kasb etgan. Kunlar o'tib bog' yaqinidagi tepalikda bahaybat ayiqning tez-tez paydo bo'lishi Qurbon amakini xavotirga sola boshladi. Avvallari uning izlariga ko'zi tushsa ham unchalik ahamiyat bermagan edi. Keyinchalik ayiq yarim tunda beo'xshov o'kiradigan odat chiqardi. U oyning xira yorug'ida yon-atrofga alanglab chuqur nafas olar, pishqirar, shox-shabbalarni sindirardi.

«Chaqirilmagan mehmon» kunlarining birida ozuqa tanqisligi sezilmasa ham dabdurdustdan o'tinchining bog'iga oralab, nafsini jilovlay olmay, mevali daraxt shoxlariga osilganicha hosilni paqqos tushira boshladi. Keyingi kelishida bodom va sariq do'lanalarni ham e'tibordan chetda qoldirmadi. O'tinchining bog'ida tinchlik bo'lmay qoldi.

Kutilmaganda sahar payti Qurbon amaki hovliga chiqqanida, ne ko'z bilan ko'rsinki, ikki-uch odim narida ona ayiq turardi. O'tinchi shoshib qolib, beshotarni qo'lga olgan ham edi-ki, ayiq yashin tezligida miltiqni urib, uchirib yubordi. Keyin bir zunda orqaga o'girilib bolasini ko'targancha ko'zdan g'oyib bo'ldi. Hovlida g'ala-g'ovur, shovqin-suron ko'tarildi. Bu

ONA AYIQ G'AZABI



(Voqeiy hikoya)

ko'ngilsiz voqeadan xabar topgan qo'ni-qo'shnilar nima ilinsa qo'lga olib, ona-bola ayiq ortidan quvlashga tushdilar. Lekin ayiqlar bu yerdan ancha olislab ketishgan edi.

Qo'rquvdan bezovtalangan o'tinchi bir necha hafta ko'ngliga hech nima sig'may, qo'li ishga bormay yurdi. Lekin oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsa-da, ona ayiq o'tinchi Qurbon amakining hovli-bog'i yaqiniga boshqa yo'lama.

Abdulla SAIDOV

Sizga aytib bermoqchi bo'lgan ertagim, afsonaviy pahlavonlar yoki uchar gilamlarda dunyo kezman bahodirlar haqida emas, balki tengdoshingiz, Ilhomjon degan bolaning ajoyib ishlari va sarguzashtlari haqida bo'ladi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Ilhomjon degan bola bor ekan. Sho'x bolakayning ikki va uch g'ildirakli velosipedi, besh-olti xil mashinalari, batareyali fonari, ayiqchasi, yana boshqa o'yinchoqlari ham bor ekan. Bu o'yinchoqlarni dadasi, oyisi, bobosi va buvisi uning tug'ilgan kuni- d a

sovg'a qilishgan ekan. Ilhomjon juda sho'x bo'lganligi uchun o'yinchoqlarni ikki-uch kunda buzari yoki sindirib qo'yarkan. Shunda u dadasiga:

— Dada, o'yinchog'im buzilib qoldi, tuzatib bering, — derkan.

Otasi o'yinchoqni tuzatib bersa, Ilhomjon yana buzib qo'yarkan. Bu hol har kun qaytarilarkan. Bir kuni dadasi Ilhomjongaga:

— Bo'ldi, endi o'yinchog'ingni buzsang, o'zing tuzatasana, — debdi.

Biroq, ko'p o'tmay uning avtomat o'yinchoq'g'i yana buzilib qolibdi. Kechga yaqin esa pistoletning tepkisi ishlamay qolibdi. Keyin velosipedning g'ildiragi chiqib ketibdi, mashinasi yurmay qolibdi. Bundan esa Ilhomjonning rosa boshi qotibdi. Dadasiga aytgani uyalibdi. Ombir, bolg'a va boshqa asboblarni topib, o'yinchoqlarni tuzatmoqchi bo'libdi. Qancha urinsa ham, buni uddalay olmabdi. Keyin siniq mashina qismlaridan yangisini yasashni niyat qilibdi. Velosipedning fonari-yu ayiqchasining batareyalari, avtomatning prujinasi-yu, arava-

chasining g'ildiraklarini bir-biriga ulab, o'zicha yangi mashina ixtiro qilibdi. Ko'rinishdan parovozga ham, ko'tarma kranga ham, raketaga ham o'xsharmish. Ichiga batareya, fonar, telefon qismlarini joylashtiribdi. Nihoyat, Ilhomjon oxirgi mixni qoqayotib:

— Yangi mashinam bitdi, — deya rosa xursand bo'libdi. Shu payt mashina sal qimirlab: — Ha-li bit-gani yo'q. Ba-ta-reya yaxshi ulanmagan, — dermish!

Ilhomjon qo'rqib ketibdi. Mashina esa ha-li ham to'xtamay gapirmish.

— Ba-ta-reyani qay-ta u-lab qo'y! Ba-ta-reyani qay-ta u-lab qo'y!

Ilhomjon emaklab borib batareya simlarini qaytadan ulabdi. Yangi mashina yana gapirishni boshladi.

— Men ro-bot-man! Men ro-bot-man! Is-mim Te-mur. Men ro-bot Te-murman!

Ilhomjonning oldiga kelib, undan asta so'rabdi:

— Se-ning is-ming ni-ma? Se-ning is-ming ni-ma?

— Mening ismim Ilhomjon, — debdi bola.

— Se-ning is-ming Il-hom-jon, mening is-mim Te-mur! Men robotman! Men sen-ga do'st bo'-la-man. Bir-ga-la-shib o'y-nay-miz! May-li-mi?

— May-li, — debdi Ilhomjon xursandligidan. Shunday qilib, Ilhomjon yangi do'sti Temur ismli robot bilan birga o'ynaydigan bo'libdi. Ular uchun ajoyib kunlar boshlanibdi...

(Davomi bor)

Anvar TOJIYEV

SUZUVCHILARGA MUNOSIB TUHFA

Yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish, iste'dodini namoyon etishi uchun sharoit yaratish davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.



Kuni kecha poytaxtimizdagi Respublika Olimpiya zaxiralari kollejida yangi, zamonaviy suv havzasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar yurtimizda yosh avlod kamoloti yo'lida

qilinayotgan ezgu ishlarga alohida to'xtalib, ushbu dargohdan yaqin kelajakda qit'a va jahon chempionlari, Olimpiya o'yinlari g'oliblari yetishib chiqishiga tilak bildirdi. Shundan so'ng, suv havzasida suzish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari tomonidan ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

Ushbu inshoot qurilishida Ispaniya va Daniyadan zamonaviy uskunalar keltirildi. Start nuqtasi, chiziqlar, bayroqchalar, zinapoyalar, havzaning pastki va chet devorlaridagi belgilar Xalqaro suzish federatsiyasi - FINAning talablariga to'la-to'kis javob beradi.

BOKSCHILARIMIZ G'ALABASI

Har gal charmqo'lqop ustalarimiz xalqaro musobaqalarga otlanganlarida, ulardan yurtdoshlarimiz faqat va faqat g'alaba kutishadi.

Bu bejiz emas. Boisi, keyingi yillarda mam-lakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor hatijasida farzandlarimiz orasidan ko'plab yosh iqtidor egalari yetishib chiqmoqda. Ular erishayotgan yutuqlar, qo'lga kiritayotgan



g'alabalar esa ona Vatanimiz nomini butun dunyoga tanitmoqda.

Kuni kecha yosh va iqtidorli bokschi-larimiz Qozog'istonning Jezkazgan shahrida o'tgan nufuzli xalqaro musobaqada ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, murabbiylari ishonchini oqladi. Jumladan, 81 kilogramm vazn toifasida ringga ko'tarilgan Abror Turg'inboyev finalga qadar bo'lgan mashaqqatli yo'lni mardonavor bosib o'tib, yakunda kumush medal bilan taqdirlandi. Shuningdek, vazni 46 kilogramm bo'lgan Begzodjon Serimbetov turnirning bronza medaliga sazovor bo'ldi.

S. TURSUNOV



— Musobaqadan maqsad, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sportga qiziqitirish hamda ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishdan iborat, — deydi maktabning yoshlar yetakchisi Xolida Orziyeva.

Bahslar yakunida maktabning 9-«A» sinf o'quvchilari g'olib, deb topildi. Ular Yoshlar ittifoqi tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

O. TURSUNBOYEVA

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 19-umumta'lim maktabida xalqimizning sevimli aktrisasi Ra'no Yarasheva bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Alisher Navoiy-o'zbek adabiyotining asoschisi.



UNUTILMAS UCHRASHUV

El sevgan san'atkor o'quvchilarga dastlab o'zining bolaligi, ijod olamining mashaqqatli yo'li haqida so'zlab berdi. So'ng, bolalarni yoshlik davridan umumli foydalanib, o'qib-o'rganishga, ilm izlashga chorladi. Ayniqsa, jan-natmakon yurtimiz tuprog'ida yetilib pishadigan shirindan shakar mevalarimiz, go'zal va betakror tabiatimiz haqidagi fikrlari yig'ilganlarga manzur bo'ldi. So'zi yakunida aktrisa o'smir yoshidagi yigit-qizlarga yuzlanib, bugungi shiddatkor zamonda ogoh bo'lib yashashni, turli yot g'oyalarga berilmay, orzu va maqsadlar sari olg'a

intilishni, faqat va faqat o'qib-o'rganish kerakligini uqtirdi.

Shundan so'ng, mehmon yig'ilgan-larga o'z qalamiga mansub she'r va g'azallardan o'qib berdi. O'quvchi-larning bir-biridan qiziq savollariga mazmunli javob qaytardi. Yakunda bolajonlarga kelajak orzulariga yetishishlarida ulkan parvozlar tiladi.

Ushbu tadbirni tashkillashtirishda maktab rahbari Nigora Qayumova va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilrabo Musayevaning xizmati katta bo'ldi.

Muzaffar AHMEDOV

KIM A'LOCHI, KIM FAOL?

Maktabimiz o'quvchilari ko'plab tanlovlarda faol ishtirok etadi. Shu bois, biz ustozlar ham yaqinda bo'lib o'tgan ona tili va adabiyot fani oyli doirasida turli qiziqarli bellashuv va tadbirlar tashkillashtirdik.

Ayniqsa, hamkasbim Zarifa Tosheva bilan hamkorlikda o'tkazgan «Kim savodli?» nomli tanlovimizda o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdi. Axir o'quv dar-gohidagi eng savodli o'quvchi va husnixat egasiga aylanishni kim ham istamay-di, deysiz? Shunday qilib, bu nomga 6-«A» sinf o'quvchisi Barno Saidvaliyeva munosib deb topildi. Bundan tashqari, iqtidorli yosh qalamkashlarimiz tuman va shahar miqyosidagi turli bellashuvlarda ishonchimizni munosib oqlamoqda.

Kuni kecha «Husnixat» tanlovining shahar bosqichida 11-«A» sinf o'quvchisi Sevinch Yoqubova faxrli o'ringa sazovor bo'ldi. Tuman miqyosida o'tkazilgan «Jaholatga qarshi ma'rifat» ko'rik-tanlovida esa Sabina Bozorova, Zarina Jo'rayeva kabi iste'dodli qizlarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

O'quvchilarimizning intilish va harakatlari ustozlarni ham faollikka chorlaydi. Biz ular uchun qiziqarli uslubda dars o'tish-u turli tadbirlarni tashkil etishdan sira charchamaymiz.

Dilorom JALILOVA,

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

SARDORLAR BELLASHDI

Samarqand viloyati, Tayloq tumanidagi 20-umumta'lim mak-tabida Yoshlar ittifoqi sardorlari va faol a'zolari tashabbusi bilan sportning yengil atletika turi bo'yicha bellashuv o'tkazildi.

OBUNACHILARIMIZ SONI ORTMOQDA

Bar-
c h a
o'q u v -
chilarim
«Tong yul-
duzi» gaze-
tasini sevib
mutolaa
qiladilar.



Bir-biridan ma'noli maqola va she'rlar, ertak va topishmoqlar hech bir o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Ushbu o'quv yilida gazeta obunachilar soni 100 nafarga yetdi. Quvonarlisi yil bo'yi gazetaga obuna bo'lmoqchi bo'lgan o'quvchilar soni yanada ortib boradi.

Namoz QARSHIYEV,

Jizzax viloyati, Arnasoy tumanidagi

8-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

BO'SH O'TIRMAI. BOSH QOTIR!

SAVOLLAR:

A – Qaysi to'qima xlorofilli parenxima yoki xlorenxima deb ataladi?

N – Hozirgi xonaki otlarning ajdodi qaysi ot hisoblanadi?

A – Yurak qorinchasida yarim to'sig'i bor hayvon?

T – Bir yozning o'zida 10 metrgacha o'sadigan o'simlik?

O – Ba'zida oyoq yuzasining butun sathini


gumbaz qism egallab, u tekis bo'lib qoladi. Bu qanday kasallik?

M – Me'da ostida qanday bez joylashgan?

I – Dunyodagi eng kichik gul?

Y – Qon tarkibidagi eritrotsitlar soni va miqdori kamayishi natijasida qaysi kasallik kelib chiqadi?

A – «Pekin karami» o'simligi qaysi oilaga mansub?



Sojida YUSUPOVA,

Sharof Rashidov tumanidagi

17-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

FOYDALI MASLAHATLAR

Pichoqning dami tez qaytmasin desangiz, uni qoshiq, vilkalardan alohida saqlang, qaynoq suvda aslo yuvmang.

Sutdan bo'shagan idishni avvalo, sovuq suv bilan chayib, keyin issiq suvda yuvish lozim. Idishga birdaniga issiq suv quyilsa, sut qoldiqlari yelim moddaga aylanib, idish devoriga yopishib qoladi.

Piyoz to'g'ralgandan keyin pichoq quruq tuz bilan ishqalansa, uning hidi ketadi.

Sarimsoqpiyozni tozalash va to'g'rashdan so'ng qo'lni tuz bilan ishqalab, keyin iliq suvda yuvsangiz, sarimsoqpiyoz hidi yo'qoladi.

Qoramtir bo'lib qolgan chinni idishni iste'mol sodasi bilan ishqalab yuvsangiz, yana oppoq bo'ladi.

Shisha stakan, vazani yuvganda, suvga 1-2 qoshiq sirka va 1 qoshiq tuz solinsa, idishlar billur kabi yaltiraydi.

Tuz nam tortmasligi uchun unga 1 choyqoshiq kartoshka uni (kraxmal) qo'shing. Ana shunda tuz doimo quruq holda saqlanadi. Bu miqdordagi kartoshka uni tuzning mazasini ham, rangini ham o'zgartirmaydi.

Non qopqog'i jips bekiladigan chinni yoki sirlangan idishda saqlansa, ancha vaqtgacha yumshoq turadi va suvi qochmaydi.

Agar issiq gaz plitasiga sut to'kilib ketsa, darhol tuz seping va qog'oz bilan yopib qo'ying. Ana shunda sutning kuygan hidi uy bo'ylab tarqalmaydi.

Agar sirti idishlarga taom to'kilib qorayib qolsa, biroz sovuq suv va tuz soling. Bir necha soat o'tgach, osongina tozalab olishingiz mumkin.



SHIRQOVOQ

Aziz kichik bekalar! Qovoq va uning danagi shifobaxsh ekanligidan yaxshi xabardorsiz. Bugun sizlarga ana shu mahsulotdan mazali taom – shirqovoq tayyorlashni o'rgatamiz.

Kerakli masalliqlar: o'rta kattalikdagi qovoq, 2 litr sut, 1 piyola guruch.

Tayyorlanishi: ish avvalida qovoqni yuvib, uni mayda bo'laklarga bo'lib olamiz. So'ng, qozonga suv va bo'laklangan qovoq solamiz. Pishib yetilgach, ustidan yuvilgan guruch solamiz. Guruch pishgach, sut quyamiz. Qaynayotgan ovqatni tez-tez kovlab turmasangiz, tagiga olib ketishi mumkin. Agar taom yanada mazali bo'lishini istasangiz, ozgina shakar solishingiz mumkin. Ovqat tayyor bo'lgach, likopchalarga solib, ustiga sariyog' bo'lgi bilan dasturxonga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi

8

5-noyabr 2018

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURUNOV
Rassom
Feruza KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-
xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihozdan sifatli
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 25327
Buyurtma – V2658

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.
Topshtirish vaqti – 18:00
Topshtirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08